

JADIDCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI

Eshtemirov Komiljon G‘ayrat o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik, uning asoschisi, jadidchilikning paydo bo‘lishi, jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari, jadidlar, o‘sha davrning ilg‘or kuchlari, ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetishganligi va mamlakat ravnaqi uchun olib borilgan jadidchilik siyosati haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** jadidchilik, jadidlar, g‘oya va maqsadlar, ziyolilar, jamiyat, jadidchilik siyosati.*

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: **جدي** **jadīd** - yangi) — 19-asr oxiri 20-asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Jadidchilik dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. 19-asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik ilk bor Qrimda 1980-yillarda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida paydo bo‘lgan. Jadidchilik harakati vakillari ko‘pincha o‘zlarini ilg‘or, keyinchalik jadidchilar deb atagan. O‘sha davrning ilg‘or kuchlari, ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdi. Jadidchilik mohiyatan siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyat davrlari bor, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xivada bu davrlar 1895-1905 yillar, 1906-1916, 1917-1920, 1921-1929 yillarni qamrab oladi. Jadidchilik dastlab madaniy oqim sifatida faoliyat yuritgan. Bu tariqat vakillari taraqqiyot, turkiy tillarni rivojlantirish, bu tillarda adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, ayol va erkak tengligi uchun kurash olib borishga chaqirdilar. Keyinchalik jadidlar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qildilar.¹

Jadidchilik sovet adabiyotida —burjua-liberal, “millatchilik harakati” sifatida ta’riflangan. Bu davrda SSSR parchalanib ketganidan keyin ko‘proq tanqid qilingan. Ammo bunga qaramasdan jadid namoyandalarning nomlari qayta tiklandi. Feodolizmga qarshi norozilik kayfiyati, zarur taqdirda amaliy yo‘lini tutish

¹O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob —Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000

ma'rifatparvarlikning siyosiy maqsad va mohiyatini ifoda etadi. Bu narsa ma'rifatchilikning ikkinchi bosqichi deb nom olgan 1905-1906 yillardagi voqealar ta'sirida shakllandi.

Bu davrda S.Ayniy, A.Avloniy, M.Behbudiy, Munavvarqori va boshqalar nomi bilan boshlangan jadidchilik harakati keng yoyildi. Bu harakat yangimilliy kadrlarni tayyorlab yetishtirish va tarbiyalashda, madaniyatning milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishga da'vat etishda ko'zga tashlandi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o'rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Keyinchalik Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada erkin fikrli, ilg'or fikrli kishilarning ma'lum guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Eng muhimi jadidlar o'lkada mavjud bo'lgan madaniyatga yangi mazmun berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Shu maqsadda san'at, matbuot, maorif, adabiyot sohalarida islohot o'tkazish g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar avvalambor, maorif sohasida islohotlar o'tkazib xalq ommasining savodxonligi, bilimi, umumiy madaniy saviyasini oshirishga bel bog'ladilar. Natijada — "Usuli jaded" maktablarini ochilishi ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'ldi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan 100 ga yaqin shunday maktablarda 100 mingdan ortiq bola tarbiya ko'rdi.¹

Jadidlar maorifning diniy tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishga intildilar. Diniy bilimlarni o'qitishga katta ahamiyat berilishi bilan birga dunyoviy fanlar: arifmetika, tarix, geografiya, tabiiyotdan berilgan saboqlar ham muhim o'rin tutadi. Behbudiy diniy tizimni qayta qurish, ruhoniylarni yangi avlodini tayyorlash lozimligini alohida ta'kidlagan edi. Uning — "Padarkush", Fitratning — "Munozara", Qudratilloning — "To'y" kabi dramatik asarlarini yuzaga kelishiga ana shu talablar sabab bo'ldi. Shu qatorda jadidchilardan yana biri Abdulhamid Cho'lpon XX asr o'zbek she'riyatining eng yirik vakili sifatida tanildi. U o'tkir she'riyati, yuksak tarjimalari, kuchli dramalari, mumtoz romani va kuyunchaklik bilan yozilgan publitsistik maqolalari hamda jangovar ijtimoiy faoliyati bilan o'zbek adabiyoti, o'zbek madaniyati va o'zbek milliy tafakkuri rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Adabiyotga ma'rifatparvar sifatida kirib keldi. Cho'lpon ozodlik, tenglik, adolat, mustaqillikning qo'rqmas kuychisi va zulm, yovuzlik, bosqinchilik, talonchilikning ashaddiy dushmani sifatida shuhrat qozondi, hatto, — "cho'lponchilik" degan yo'nalishning sardoriga aylandi (sovet

¹ Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999

mafkurachilari — “cho‘lponchilik” iborasini aslida salbiy, ya‘ni — “millatchilik” ma‘nosida qo‘llagan, haqiqatda esa u millatparvarlik, adolatparvarlik tushunchasini ifodalagan).¹

Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li(1878-1931). Munavvarqori 1878-yili Toshkentda tug‘ildi. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib, — “usuli jaded” maktabini ochdi. Bu maktablar uchun — “Adibi avval”, — “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, — “Tajvid al-Qur‘on”, — “Yer yuzi” singari darsliklar tuzib, nashr etdi. Shayxontohurda ochgan — “Rushdiya” (o‘rta) maktabi —“Namuna” atalib ismiga mos edi. 1931-yil 23-mayda Moskvaning mashhur Butirkasida otilib, Vagankovo qabristoniga pinhona ko‘mildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889—1929). Hamza jadid adabiyoti namoyandasi, shoir, dramaturg, adib va muallim. 1889-yili Qo‘qon shahrida tug‘ildi. Eski maktabda, madrasada va ovrupocha maktabda ta‘lim oldi. Hamza usuli jadid maktablarining faol tashkilotchilaridan. U 1910-yili Toshkentda, 1911-yili Qo‘qonda, 1914-yili Marg‘ilonda, shu yili yana Qo‘qonda shunday maktablar ochdi. Muallimlik, tashviqotchilik bilan shug‘ullandi. 1915-yillar oxiridan gazeta va jurnallar chiqarishga kirishdi. «Kengash» (1917), «Hurriyat» (1917) jurnallarini ta‘sis yetadi, ularga muharrirlik qiladi. 1918-yili Hamza sayyor dramtruppa tuzdi. Bu truppa uchun o‘zi dramalar yozdi. Atoqli ma‘rifatparvar, Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov 1884-yili Turkiston shahrida tavallud topdi. Yoshligidan o‘ta ziyrak, tadbirkor va mehnatkash bo‘lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do‘konini ochishdan boshladi. Ko‘p o‘tmay u Turkistonda birinchi jadid maktabini tashkil etdi. 1914 - yilda paxta zavodini qurib, Turkistonning taniqli boylari va savdogarlaridan biri sifatida shuhrat qozondi.²

Abdurauf Fitrat XX asr o‘zbek adabiyoti fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o‘tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publitsist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi. Abdurauf Fitrat o‘z tarjimai holidan yozishicha, 1884-yilda Buxoroda tug‘ilgan (Sadridin Ayniy uni 1886-yilda dunyoga kelgan deydi, hozirgi darsliklar va ilmiy tadqiqotlarda ham shu sanani takrorlashadi). Abdurauf ilk tahsilni Buxoro maktablarida olganidan so‘ng, mashhur Mirarab madrasasida o‘qidi. Talabalik yillarida, taxminan 18-19 yoshlarida otasi bilan haj ziyoratiga bordi. O‘zining aytishicha, avval jadidchilik harakatiga qarshilik qildi, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo‘shildi, hatto ashaddiy targ‘ibotchilaridan biriga aylandi. Abdulla Qodiriy yangi davr o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri, o‘zbek milliy

¹ Xo‘jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997

² Rajabova R. va boshqalar, O‘zbekiston tarixi (1917-1993-yillar), Toshkent, 1994

romanchilik maktabining tamal toshini qo‘ygan buyuk adibdir. U 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ildi. 9-10 yoshlarida eski usul maktabida tahsil oldi. So‘ng rus-tuzem maktabida o‘qidi. 17-18 yoshlarida bir savdogarga — “prikazchilik”ka yollanib, uch-to‘rt yil ishladi. So‘ng bog‘bonlik bilan tirikchilik o‘tkazdi. Abdulla Qodiriy ijodi 1913–1914 yillarda boshlandi. U shu yillari barcha ilg‘or fikrli yoshlar qatori jadidchilik harakatiga qo‘shilgan va o‘zining ilk asarlarida ma‘rifat, millat taraqqiyoti va xurligi g‘oyalarini targ‘ib eta boshladi.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to‘quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topdi. Avval O‘qchidagi boshlang‘ich maktabda, so‘ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Biroq ko‘proq mustaqil o‘qib-o‘rgandi, tez orada o‘z davrining savodxon, ma‘rifatparvar kishisiga aylandi. Avloniy asrimiz boshlarida o‘lkamizda avj olgan jadidchilik xarakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodxon qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko‘rish, farovon etish yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko‘p sohalarda faol ish olib bordi. 1907-yilda o‘z uyida — “Shuhrat” nomli gazeta nashr qildi. U mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob — Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000
2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999
3. Xo‘jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997
4. Rajabova R. va boshqalar, O‘zbekiston tarixi (1917-1993-yillar), Toshkent, 1994
5. Eshtemirov, Komiljon, and S. B. Tilabaev. "Yoshlar ma‘naviyati va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.2 (2023): 929-935.
6. Eshtemirov, Komildjan, and Oybek Jorayev. "THE ROLE OF ABDULLA AVLANI IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK JOURNALISM AND DRAMATURGY." *Innovative research in modern education* 1.2 (2023): 72-74.
7. Eshtemirov, Komildjan. "WRITER AVLANI IN THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY." *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education*. Vol. 1. No. 6. 2023.
8. Komiljon, Eshtemirov. "Ma‘rifatparvar Avloniy hayotiga nazar." *Theory and analytical aspects of recent research* 2.13 (2023): 244-248.